



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 09 | pp. 38-45 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

MINTAQADA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI



Sotvoldiev Nodirbek Jurabaevich

Namangan davlat pedagogika instituti professori
iqtisodiyot fanlari doktori

Annotatsiya. Ushbu maqolada mintaqada ekologik xavfsizlikni ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etilgan. Ekologik xavfsizlik mintaqaviy iqtisodiy tizimning barqaror ishlashi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, aholi uchun qulay yashash muhitini shakllantirish va kelajak avlodlar manfaatlarini ta'minlash bilan uzviy bog'liq jarayon sifatida qaraladi. Tadqiqotda davlat boshqaruvi, mahalliy hokimiyat, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, moliya institutlari va fuqarolik jamiyati institutlarining ekologik xavfsizlikni ta'minlashdagi o'rni tizimlashtirilgan. SHuningdek, ekologik soliq va to'lovlar, ekologik investitsiyalar, imtiyozli kreditlar, davlat-xususiy sheriklik, «yashil» moliyalashtirish, ekologik monitoring va rag'batlantirish vositalaridan iborat integratsiyalashgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm taklif etilgan. Tadqiqot natijasida mintaqaviy ekologik xavflarni baholash va ekologik loyihalarni moliyalashtirishni bog'lovchi mexanizmning kontseptual modeli ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ekologik xavfsizlik, mintaqaviy iqtisodiyot, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, ekologik boshqaruv, ekologik risk, tabiiy resurslar, yashil iqtisodiyot, ekologik investitsiyalar, yashil moliyalashtirish, davlat-xususiy sheriklik.

Аннотация. В исследовании рассматриваются теоретические и практические аспекты формирования организационно-экономического механизма обеспечения экологической безопасности региона. Экологическая безопасность рассматривается как важнейшая составляющая устойчивого функционирования региональной экономической системы, рационального использования природных ресурсов, формирования благоприятной среды проживания населения и защиты интересов будущих поколений. Систематизированы функции органов государственного управления, местных органов власти, хозяйствующих субъектов, финансовых институтов и институтов гражданского общества. Предложен интегрированный организационно-экономический механизм, включающий экологические платежи, инвестиции, льготное кредитование, государственно-частное партнёрство, зелёное финансирование, экологический мониторинг и экономическое стимулирование. Разработана концептуальная модель взаимосвязи оценки экологических рисков, их экономической интернализации и финансирования природоохранных проектов на региональном уровне.

Ключевые слова: экологическая безопасность, региональная экономика, организационно-экономический механизм, экологическое управление, экологический риск, природные ресурсы, зелёная экономика, экологические инвестиции, зелёное финансирование, государственно-частное партнёрство.

Abstract. *The study examines the theoretical and practical aspects of developing an organizational and economic mechanism for ensuring environmental security at the regional level. Environmental security is considered an important component of sustainable functioning of regional economic systems, rational use of natural resources, creation of a favorable living environment and protection of the interests of future generations. The roles of public authorities, local governments, economic entities, financial institutions and civil society organizations are systematized. An integrated organizational and economic mechanism based on environmental payments, investments, preferential financing, public-private partnerships, green finance, environmental monitoring and economic incentives is proposed. A conceptual model linking regional environmental risk assessment, economic internalization of environmental externalities and financing of environmental projects is developed.*

Key words: *environmental security, regional economy, organizational and economic mechanism, environmental governance, environmental risk, natural resources, green economy, environmental investment, green finance, public-private partnership.*

KIRISH

Bugungi kunda iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash bilan bir qatorda atrof-muhitga antropogen ta'sirni kamaytirish mintaqaviy iqtisodiy siyosatning muhim vazifalaridan biriga aylanmoqda. Ishlab chiqarish hajmining o'sishi, urbanizatsiya, transport infratuzilmasining kengayishi, suv va energetika resurslariga bo'lgan talabning ortishi ekologik xavflarning hududlar kesimida turlicha shakllanishiga olib keladi. SHu nuqtai nazardan ekologik xavfsizlikni faqat tabiatni muhofaza qilish tadbirlari yig'indisi sifatida talqin qilish yetarli emas. U iqtisodiy manfaatlar, institutsional munosabatlar, moliyaviy resurslar, texnologik modernizatsiya va davlat boshqaruvi bilan bog'liq yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqilishi lozim.

O'zbekistonda ham ekologik barqarorlik va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Suv resurslarini tejash, atrof-muhitni muhofaza qilish va aholi uchun qulay ekologik sharoit yaratish strategik maqsadlar qatoriga kiritilgan. Ayniqsa, «Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yili» doirasida iqtisodiyotni dekarbonizatsiya qilish, resurslarni tejash, qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanishni kengaytirish, ekologik loyihalarni barqaror moliyalashtirish hamda hududlararo va tarmoqlararo muvofiqlashtirish vazifalari belgilangan. SHundan kelib chiqib, mintaqada ekologik xavfsizlikni ta'minlashning tashkiliy va iqtisodiy elementlarini o'zaro bog'lagan holda, ekologik risklarni kamaytirish va iqtisodiy rivojlanishning barqarorligini ta'minlashga qaratilgan mexanizmni shakllantirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqish dolzarblik kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Ekologik xavfsizlikning mintaqaviy jihatlari iqtisodiyot, ekologiya, davlat boshqaruvi va institutsional iqtisodiyot kesishmasida shakllanadi. Ilmiy adabiyotlarda ushbu muammoning bir nechta asosiy yondashuvlari mavjud. Birinchi yondashuv ekologik xavfsizlikni hududiy tizim sifatida talqin qiladi. Bunda ekologik xavflar muayyan hududdagi sanoat, transport, qishloq xo'jaligi, kommunal infratuzilma va tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog'liq holda o'rganiladi. Mintaqaviy ekologik xavfsizlik bo'yicha tadqiqotlarda «ishlab chiqarish ob'ekti – ekologik ta'sir – atrof-muhit – aholi»

o'rtasidagi o'zaro aloqalarni kompleks baholash zarurligi ta'kidlangan [1]. Ikkinchi yondashuv tashkiliy-boshqaruv nuqtai nazaridan ekologik xavfsizlikni ko'rib chiqadi. Unda davlat organlari, mahalliy boshqaruv, korxonalar va jamoatchilik o'rtasidagi vakolatlarini aniq belgilash, ekologik monitoring va nazorat tizimini shakllantirish muhim hisoblanadi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (Organisation for Economic Co-operation and Development – OECD) tadqiqotlarida ham mintaqaviy siyosatda ko'p darajali boshqaruv, davlat investitsiyalari va institutsional muvofiqlashtirishning ahamiyati qayd etilgan [2]. Uchinchi yondashuv iqtisodiy mexanizmlarga asoslanadi. Bunda ekologik siyosatda iqtisodiy instrumentlar – soliqlar, yig'imlar va boshqa bozor mexanizmlaridan foydalanish masalalari tahlil qilingan. Mualliflar iqtisodiy instrumentlarni tartibga solish vositalari bilan birgalikda qo'llash zarurligini ta'kidlaydi [3]. OECD tadqiqotlariga ko'ra, ekologik siyosatda soliqlar va subsidiyalar kabi bozor instrumentlari bilan birga davlat investitsiyalari, tartibga solish va axborot vositalari ham birgalikda qo'llanishi mumkin [4].

Zamonaviy tadqiqotlarda esa ekologik xavfsizlik «yashil iqtisodiyot» va aylanma iqtisodiyot kontseptsiyalari bilan tobora ko'proq bog'lanmoqda. OECDning tadqiqotlarida ekologik maqsadlarga erishish uchun soliqlar, kredit va boshqa rag'batlar, depozit-qaytarish tizimlari, ishlab chiqaruvchining kengaytirilgan mas'uliyati hamda «yashil» davlat xaridlari kabi vositalar tahlil qilingan [5]. SHu bilan birga, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo'yicha dasturi (United Nations Environment Programme – UNEP) yondashuvida ekologik boshqaruv iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik maqsadlarni integratsiyalashni talab qiladi. Xususan, suv, oziq-ovqat, energetika va tabiiy resurslar masalalarini alohida emas, balki o'zaro bog'liq tizim sifatida ko'rib chiqish zarurligi ta'kidlanadi [6].

Shunday qilib, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ekologik xavfsizlikni ta'minlash masalasi bo'yicha mavjud tadqiqotlarda asosan ekologik boshqaruv, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiy tartibga solish vositalari, «yashil iqtisodiyot» va aylanma iqtisodiyot tamoyillari alohida yo'nalishlar sifatida tadqiq etilgan. Biroq mazkur yondashuvlarda ekologik xavfsizlikni ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi doirasida integratsiyalash masalasi yetarlicha ochib berilmagan. SHu bois, mintaqalarning ekologik xavfsizligini baholashda ekologik ko'rsatkichlar bilan bir qatorda iqtisodiy, institutsional va moliyaviy ko'rsatkichlarni integratsiyalash masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda ekologik xavfsizlikni mintaqaviy iqtisodiy tizimning tarkibiy qismi sifatida o'rganishga asoslangan tizimli yondashuv qo'llanildi. Ekologik xavfsizlikka ta'sir etuvchi iqtisodiy, ekologik, institutsional va ijtimoiy omillar o'zaro bog'liq holda tahlil qilindi. Institutsional tahlil asosida davlat organlari, mahalliy hokimiyat, biznes sub'ektlari, moliya institutlari va jamoat tashkilotlarining funktsiyalari o'rganildi. Bunda ekologik siyosatni ishlab chiqish, amalga oshirish, monitoring va nazorat jarayonlaridagi institutsional munosabatlarga e'tibor qaratildi. Qiyosiy tahlil orqali ekologik boshqaruvning ma'muriy, iqtisodiy va bozor mexanizmlari taqqoslandi. Jumladan, ekologik to'lovlar, soliq imtiyozlari, subsidiyalar, imtiyozli kreditlar va «yashil» moliyalashtirish vositalari tahlil qilindi. SHu asosda ekologik xavflarni kamaytirishga

yo'naltiriladigan iqtisodiy va moliyaviy resurslarni ustuvor taqsimlash imkoniyatlari baholandi.

Tahlil va natijalar

Ekologik xavfsizlikni ta'minlashda institutsional vazifalarni aniq taqsimlash va ular o'rtasidagi samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki mintaqada ekologik muammolarning kelib chiqishi va ularni bartaraf etish jarayonida bir vaqtning o'zida davlat boshqaruv organlari, mahalliy hokimiyat, korxonalar, moliya institutlari, ilmiy-ta'lim muassasalari va jamoatchilik ishtirok etadi. Shu sababli ekologik xavfsizlikni ta'minlashda asosiy muammo tegishli institutlarning mavjudligi emas, balki ular o'rtasida vakolat, ma'lumot, moliyaviy resurs va mas'uliyatning samarali muvofiqlashtirilmaganligi bilan bog'liq.

Mintaqaviy darajada ekologik siyosatni amalga oshirishda mahalliy davlat hokimiyati organlari hududning ekologik muammolarini aniqlash, ustuvor yo'nalishlarni belgilash va ekologik dasturlarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar esa ishlab chiqarish jarayonida ekologik standartlarga rioya qilish, resurs tejankor texnologiyalarni joriy etish va ekologik investitsiyalarni amalga oshirish uchun mas'ul bo'lishi lozim. Moliya institutlari ekologik loyihalarni imtiyozli kreditlash va «yashil» moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish orqali ushbu jarayonni qo'llab-quvvatlaydi (1-jadval).

1-jadval

Mintaqaviy ekologik xavfsizlikni ta'minlashning institutsional sub'ektlari va ularning funktsional vazifalari¹

Institutlar	Asosiy funktsiya
Markaziy davlat organlari	Ekologik siyosat va standartlarni belgilash
Hududiy boshqaruv organlari	Mintaqaviy ekologik dasturlarni amalga oshirish
Korxonalar	Ekologik standartlarga rioya qilish va investitsiya kiritish
Moliya institutlari	Ekologik loyihalarni moliyalashtirish
Ilmiy-ta'lim muassasalari	Texnologik va ilmiy yechimlarni ishlab chiqish
Fuqarolik jamiyati	Jamoatchilik monitoringi va ekologik madaniyat
Aholi	Resurslarni tejash va ekologik mas'uliyat

Shu bilan birga, ekologik ma'lumotlarni yagona axborot tizimiga birlashtirish, ekologik monitoring natijalarini mahalliy iqtisodiy rejalashtirish jarayoniga kiritish va mas'uliyat ko'rsatkichlarini aniq belgilash maqsadga muvofiq. O'zbekistonda ekologik barqarorlik, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va «yashil iqtisodiyot»ga o'tish bo'yicha davlat siyosatida ham hududiy va tarmoqlararo hamkorlikni kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu nuqtai nazardan, «yagona ekologik maqsad – aniq vakolat – yagona axborot maydoni – moliyaviy mas'uliyat – muntazam monitoring» tamoyili asosida institutsional hamkorlikni tashkil etish mintaqada ekologik xavfsizlikni ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Ekologik muammolarning muhim iqtisodiy xususiyati – tashqi samaralar (eksternalliklar) mavjudligi bo'lib, bunda korxona yoki iste'molchining iqtisodiy faoliyati

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

natijasida yuzaga keladigan ekologik xarajatlarning muayyan qismi jamiyat zimmasiga o'tadi. Masalan, ishlab chiqarish korxonasi tomonidan atmosferaga chiqarilayotgan zararli moddalar korxonaning xususiy xarajatida to'liq aks etmasligi, ammo aholi salomatligi va atrof-muhitga qo'shimcha iqtisodiy zarar keltirishi mumkin. SHu sababli ekologik zararning iqtisodiy qiymatini hisobga olish va uni ekologik siyosat instrumentlari orqali shakllantirish muhim hisoblanadi.

SHu nuqtai nazardan «ifloslantiruvchi to'laydi» tamoyili ekologik xavfsizlikni ta'minlashning muhim iqtisodiy asoslaridan biri hisoblanadi. Ushbu tamoyilga ko'ra, atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi sub'ekt ekologik zararni kamaytirish va uni bartaraf etish bilan bog'liq xarajatlarning tegishli qismini o'z zimmasiga olishi kerak.

Mintaqaviy darajada iqtisodiy mexanizm quyidagi elementlardan tashkil topishi maqsadga muvofiq:

1. Ekologik to'lovlar va yig'imlar. Ifloslantiruvchi faoliyatning ekologik xarajatlarini hisobga olishga xizmat qiladi.
2. Soliq rag'batlari. Ekologik toza texnologiyalarni joriy etgan korxonalarga iqtisodiy rag'bat berish.
3. Imtiyozli kreditlar. Energiya tejamkor, suv tejamkor va chiqindisiz texnologiyalarga investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash.
4. Ekologik investitsiyalar. Hududiy ekologik fondlar va investitsiya dasturlari orqali infratuzilmani modernizatsiya qilish.
5. Davlat-xususiy sheriklik. Chiqindilarni qayta ishlash, suv ta'minoti, oqova suvlarni tozalash va qayta tiklanuvchi energetika loyihalarida xususiy kapitalni jalb qilish.
6. «Yashil» moliyalashtirish. Ekologik samara beradigan loyihalarga kredit, obligatsiya va boshqa moliyaviy instrumentlarni yo'naltirish.

Demak, mintaqada ekologik xavfsizlikni ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini ekologik, iqtisodiy va institutsional chora-tadbirlarni o'zaro uyg'unlashtirgan holda shakllantirish maqsadga muvofiq. Mazkur mexanizmning asosini «ekologik diagnostika → ekologik risklarni baholash → ustuvor yo'nalishlarni belgilash → iqtisodiy rag'batlantirish → ekologik investitsiyalarni jalb qilish → texnologik modernizatsiya → ekologik monitoring → natijadorlikni baholash → qayta tartibga solish» izchilligi tashkil etadi. Ushbu jarayonda dastlab mintaqadagi ekologik holat, asosiy ifloslanish manbalari va tabiiy resurslardan foydalanish darajasi diagnostika qilinadi. Keyin ekologik risklarning ehtimoliy iqtisodiy va ijtimoiy ta'siri baholanib, mavjud moliyaviy va institutsional imkoniyatlardan kelib chiqqan holda ustuvor ekologik yo'nalishlar belgilanadi. Mexanizmning markaziy elementi ekologik risklarni iqtisodiy qarorlar bilan bog'lashdan iborat bo'lib, bunda ekologik zarar va uni bartaraf etish xarajatlari iqtisodiy munosabatlar tizimida inobatga olinadi. Xususan, ekologik ta'siri yuqori bo'lgan korxonalar uchun ekologik talablarni kuchaytirish bilan bir qatorda, energiya va resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etishga imtiyozli kreditlar, soliq rag'batlari, subsidiyalar va boshqa moliyaviy instrumentlarni qo'llash mumkin (1-rasm).

Shu tariqa korxonalar uchun ekologik talablarga rioya qilish nafaqat majburiyat, balki iqtisodiy manfaatga ham aylanadi. Bunday yondashuvda «ifloslantirish xarajati + toza texnologiyaga investitsiya rag'batlari» kombinatsiyasi ekologik mas'uliyatni oshirishning iqtisodiy vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, ekologik

investitsiyalarning samaradorligi muntazam monitoring qilinib, ularning atrof-muhitga ta'siri va iqtisodiy natijalari baholanishi lozim. Agar belgilangan ekologik ko'rsatkichlarga erishilmasa, iqtisodiy rag'batlar, nazorat choralari va moliyalashtirish ustuvorliklarini qayta ko'rib chiqish mexanizmi ishlashi kerak.



1-rasm. Mintaqada ekologik xavfsizlikni ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi²

Mintaqaviy ekologik xavfsizlik darajasini baholashda faqat atrof-muhitga chiqarilayotgan ifloslantiruvchi moddalar hajmiga tayanish yetarli emas. Chunki ekologik xavfsizlik ko'p qirrali tushuncha bo'lib, u tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligi, aholi uchun ekologik sharoit, chiqindilarni boshqarish, energiya resurslaridan foydalanish va ekologik tadbirlarni moliyalashtirish kabi omillarni ham qamrab oladi. Shu sababli mintaqaning ekologik xavfsizlik darajasini kompleks baholash uchun ekologik, iqtisodiy va institutsional ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq.

Bunda atmosfera havosiga chiqarilayotgan zararli moddalar hajmi, suv resurslaridan foydalanish samaradorligi, oqova suvlarni tozalash darajasi, hosil bo'layotgan va qayta ishlanayotgan chiqindilar ulushi, yer resurslarining degradatsiya darajasi kabi ekologik ko'rsatkichlar asosiy o'rinni egallaydi. Iqtisodiy ko'rsatkichlar sifatida ekologik investitsiyalar hajmi, ekologik tadbirlarga sarflanayotgan xarajatlar, resurs va energiya sig'imi hamda ekologik loyihalarni moliyalashtirish ko'lamini hisobga olish mumkin. Institutsional ko'rsatkichlar esa ekologik monitoring qamrovi, ekologik nazorat samaradorligi va hududiy ekologik dasturlarning amalga oshirilish darajasini ifodalaydi (2-jadval).

2-jadval

Mintaqaviy ekologik xavfsizlikni baholash tizimi³

Yo'nalishi	Asosiy ko'rsatkichlar
Atmosfera	Zararli chiqindilar hajmi, aholi jon boshiga chiqindi
Suv	Suv sarfi, tozalangan oqova suv ulushi
Yer	Degradatsiyalangan yerlar, sho'rlanish darajasi
Chiqindilar	Qayta ishlangan chiqindilar ulushi
Energetika	Energiya sig'imi, qayta tiklanuvchi energiya ulushi
Moliya	Ekologik investitsiyalar hajmi

² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

³ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Innovatsiya	Ekologik texnologiyalar soni
Boshqaruv	Ekologik monitoring qamrovi
Ijtimoiy soha	Aholining ekologik xabardorligi

Mazkur ko'rsatkichlarni yagona tizimga birlashtirish asosida har bir hududning «ekologik xavfsizlik pasporti»ni shakllantirish taklif etiladi. Ushbu pasport mintaqaning mavjud ekologik holatini baholash, asosiy ekologik xavflarni aniqlash, muammoli yo'nalishlarni belgilash va ekologik investitsiyalarni ustuvor sohalarga yo'naltirish uchun axborot bazasi vazifasini bajaradi. Shuningdek, ekologik xavfsizlik ko'rsatkichlarining yillar bo'yicha dinamikasini tahlil qilish orqali amalga oshirilayotgan ekologik siyosat va davlat dasturlarining natijadorligini baholash imkonini beradi.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalari mintaqada ekologik xavfsizlikni ta'minlash masalasini faqat ekologik nazorat va ma'muriy choralar doirasida hal etish yetarli emasligini ko'rsatdi. Ekologik xavfsizlikni ta'minlash mintaqaviy iqtisodiy siyosatning mustaqil va integral tarkibiy qismi sifatida shakllantirilishi lozim. Bunda ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional omillarning o'zaro ta'sirini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Mintaqada ekologik xavflarni muntazam aniqlash, ularning ehtimoliy iqtisodiy zararini baholash va ustuvor ekologik muammolarni belgilash maqsadga muvofiq.

Ekologik xavfi yuqori bo'lgan hududlarda resurs va energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish, imtiyozli kreditlash va «yashil» moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish lozim. SHu bilan birga, ekologik talablarni buzuvchi sub'ektlarga nisbatan iqtisodiy va ma'muriy ta'sir choralarini takomillashtirish zarur. Bunda «ifloslantiruvchi to'laydi» tamoyilini iqtisodiy rag'batlantirish choralari bilan uyg'unlashtirish muhimdir. Davlat-xususiy sheriklik asosida chiqindilarni qayta ishlash, oqova suvlarni tozalash va ekologik infratuzilmani rivojlantirish loyihalarini kengaytirish maqsadga muvofiq. Ekologik monitoringni raqamlashtirish orqali atrof-muhit holati to'g'risidagi ma'lumotlarni tezkor yig'ish va tahlil qilish imkoniyatlarini oshirish kerak. Davlat organlari, biznes sub'ektlari, moliya institutlari, ilmiy-ta'lim muassasalari va jamoatchilik o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish ekologik boshqaruv samaradorligini oshiradi. Taklif etilayotgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm ekologik xavflarni aniqlashdan tortib, ularni iqtisodiy baholash, moliyalashtirish, monitoring qilish va natijadorlikni qayta baholashgacha bo'lgan uzluksiz jarayonni qamrab oladi. Ushbu mexanizmni amaliyotga joriy etish ekologik xavflarni kamaytirish bilan birga tabiiy resurslardan samarali foydalanish, investitsiyalarni maqsadli yo'naltirish va mintaqaning uzoq muddatli barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Ekologik xavfsizlikning mintaqaviy modelini shakllantirish. Har bir hududning sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, demografik va tabiiy-iqlim xususiyatlarini hisobga olgan holda ekologik xavfsizlik dasturlarini ishlab chiqish zarur.
2. Ekologik xavfsizlik indeksini joriy etish. Atmosfera, suv, yer, chiqindilar, resurslar samaradorligi, ekologik investitsiyalar va boshqaruv sifatini qamrab olgan kompleks indeksdan foydalanish maqsadga muvofiq.

3. Ekologik risklarni iqtisodiy baholash. Korxonalar faoliyati natijasida yuzaga keladigan ekologik zararni iqtisodiy baholash va uni investitsion qarorlarga kiritish mexanizmini kuchaytirish lozim.

4. «Yashil» investitsiyalarni rag'batlantirish. Energiya va suv tejamkor texnologiyalarga investitsiya kirituvchi sub'ektlar uchun moliyaviy va soliq rag'batlarini takomillashtirish maqsadga muvofiq.

5. Davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish. CHiqindilarni qayta ishlash, oqova suvlarni tozalash, yashil energetika va resurs tejamkor infratuzilma loyihalarida xususiy sektor ishtirokini oshirish zarur.

6. Ekologik monitoringni raqamlashtirish. Ekologik ma'lumotlarni yagona raqamli platformaga integratsiya qilish, real vaqt monitoringi va ochiq ma'lumotlar bazasini rivojlantirish ekologik boshqaruv sifatini oshirishi mumkin.

7. Mintaqaviy ekologik investitsiya dasturlarini shakllantirish. Har bir hududda ekologik risklar darajasiga qarab ustuvor investitsion loyihalar portfelini shakllantirish taklif etiladi.

Umuman, ekologik xavfsizlikni ta'minlashning samarali tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi ma'muriy nazorat, iqtisodiy rag'batlantirish, ekologik investitsiyalar, innovatsion texnologiyalar, raqamli monitoring va jamoatchilik ishtirokinining o'zaro integratsiyasiga asoslanishi kerak. Bu yondashuv ekologik maqsadlarni iqtisodiy rivojlanishdan ajratmasdan, aksincha, ularni yagona mintaqaviy taraqqiyot tizimida birlashtirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Barde, J.-P. Economic Instruments in Environmental Policy: Lessons from the OECD Experience and their Relevance to Developing Economies. OECD Development Centre Working Papers, No. 92. Paris: OECD Publishing, 1994. DOI: 10.1787/754416133402.
2. OECD. Instrument Mixes for Environmental Policy. Paris: OECD Publishing, 2007. DOI: 10.1787/9789264018419-en.
3. Svatikova, K., Brown, A., Börkey, P. Economic instruments for a resource-efficient circular economy. OECD Environment Working Papers, No. 257. Paris: OECD Publishing, 2025. DOI: 10.1787/35a7051a-en.
4. OECD. A Framework for Assessing Green Growth Policies. OECD Economics Department Working Papers, No. 774. Paris: OECD Publishing, 2010. DOI: 10.1787/5kmfj2xvcmkf-en.
5. OECD. Rethinking Regional Development Policy-making. OECD Multi-level Governance Studies. Paris: OECD Publishing, 2018. DOI: 10.1787/9789264293014-en.
6. UNEP. GEO-6: Global Environment Outlook: Regional Assessment for West Asia. Nairobi: United Nations Environment Programme, 2017. <https://www.unep.org/resources/report/geo-6-global-environment-outlook-regional-assessment-west-asia>

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

